



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar
uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari
bo’yicha maslahat-kengashini tuzish to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida” 2019-yil 2-sentabradgi O‘RQ-562-son Qonunining 13-moddasiga muvofiq **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat-kengashi tarkibi (keyingi o‘rinlarda - Maslahat kengashi) 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo’yicha maslahat-kengashining 2025-yilga mo’ljallangan yillik ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlari bir hafta muddatda mazkur buyruq asosida o‘zlarining maslahat-kengashi tarkibini tasdiqlasin va nizom talablariga muvofiq faoliyati yo’lga qo’yilishini qayta ko‘rib chiqsin.

3. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to’g’risida”gi 241-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir

Toshkent sh,
2025-yil “ 12 ” -fevral,
47-son



X. Umarova

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar
uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari
bo'yicha maslahat-kengashi
TARKIBI**

T/r	F.I.SH.		Lavozimi
1.	Boqiyev Farhod Esanovich	-	Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari, maslahat-kengashi raisi
2.	Kamalov Azamat Jamalovich	-	Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiglashtirish boshqarmasi boshlig'i, maslahat-kengashi raisi o'rinbosari
3.	Muxamedov Sherzod Nurmuxamedovich	-	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiglashtirish departamenti direktori, a'zo
4.	Sharipov Ilyosbek Ilhomovich	-	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
5.	Ibrohimov Oxunjon	-	Yuridik boshqarma boshlig'i, a'zo
6.	Xoldorova Indira Abdukarimovna	-	Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
7.	Sobirova Dilfuza Azimjonovna	-	Axborot xizmati rahbari, a'zo
8.	Mamadaliyev Abdukamol Abdurahimovich	-	O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi boshlig'i, a'zo
9.	Ismoilova Kamola Valijanovna	-	Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiglashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, kotib

Izoh: Maslahat kengashi tarkibi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan yoki tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining
2025-yil "12"-fevraldagi
47-son buyrug'iga
2-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash
masalalari bo'yicha maslahat-kengashining 2025-yilga mo'ljallangan yillik
ISH REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati	Mas'ullar
1.	Vazirlikning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasida davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarni ishlab chiqishdagi ishtirokini kengaytirish choralari ko'rish.	2025-yil fevral	Maslahat-kengashi a'zolari
2.	Vazirlik hamda tizimda jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar va axborotlarni o'rganish, muntazam ravishda ularni yig'ish hamda tahlil qilish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
3.	Vazirlik hamda tizimda jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlar ko'rib chiqilishi hamda ularni tiklash bo'yicha ko'rilgan choralarni o'rganish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari

4.	Vazirlik hamda tizimda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha davlat xizmatchilarining madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish.	2025-yil iyun	Maslahat-kengashi a'zolari
5.	Ishga qabul qilishda, mansabi o'sishda va rahbarlik lavozimlariga tayinlanishida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
6.	Xotin-qizlar va erkaklarning sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydigan, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
7.	Vazirlik hamda tizimning rasmiy veb-saytida gender tenglik sahifasini materiallar bilan yangilanib borish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
8.	Vazirlik hamda tizimdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj va og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar va erkaklarni qo'llab-quvvatlash yuzasidan tegishli choralarni belgilash.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
9.	Amaldagi qonun va qonunosti hujjatlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni xodimlarga yetkazib borish maqsadida o'quvlar tashkil etib borish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
10.	"Sog'lom turmush tarafdorimiz" shiori ostida sport turlari bo'yicha xotin-qizlar va erkaklar orasida musobaqalarni tashkil etib borish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a'zolari
11.	"Erkaklar va ayollar, shu jumladan qizlar uchun teng imkoniyatlar va teng huquqlarning kafolatlari" mavzusida o'quv seminar mashg'ulotlarini o'tkazish.	2025-yil har chorakda	Maslahat-kengashi a'zolari
12.	"Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzusida xodimlar bilan targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.	2025-yil noyabr-dekabr	Maslahat-kengashi a'zolari